

COMPETENCE AND CREATIVITY OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN MODERN PEDAGOGICAL EDUCATION

Hakimova Mehriniso Homitovna

PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor

G'iyosova Dilovar Orif qizi

1st-year Master's Student, Theory and Methodology of Education and
Upbringing (Primary Education) Program Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract

This article examines the issues of professional competence and creativity of primary school teachers in the context of modern pedagogical education. It analyzes the key competencies required for effective professional practice, the skills necessary for implementing innovative pedagogical technologies, and the significance of a creative approach in organizing the educational process. Special attention is given to the role of teachers' creative thinking, their ability to find flexible solutions to challenging situations, and their contribution to developing students' independent and critical thinking skills. The findings of the study help identify important factors in preparing competitive and innovative-thinking educators who meet the demands of contemporary education.

Keywords

competence, creativity, primary education, pedagogical mastery, innovative technologies, professional competence, creative thinking, quality of education, modern pedagogy.

ZAMONAVIY PEDAGODIK TA'LIMDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA KREATIVLIGI

Hakimova Mehriniso Homitovna

p.f.f.d (PhD), dotsent

G'iyosova Dilovar Orif qizi

Buxoro davlat pedagogika institute "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim)yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va kreativligi masalalari yoritilgan. Unda o'qituvchining kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan kompetensiyalar, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalari hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda kreativ yondashuvning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchining ijodiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarga moslashuvchan yechim topa olishi va o'quvchilarning mustaqil hamda tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi o'рни ochib berilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy ta'lim talablariga mos, raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi pedagoglarni tayyorlashning muhim omillarini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kreativlik, boshlang'ich ta'lim, pedagogik mahorat, innovatsion texnologiyalar, kasbiy kompetensiya, ijodiy fikrlash, ta'lim sifati, zamonaviy pedagogika.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы профессиональной компетентности и креативности учителя начальных классов в условиях современного педагогического образования. Проанализированы ключевые компетенции, необходимые для эффективной профессиональной деятельности педагога, навыки применения инновационных педагогических технологий, а также значение креативного подхода в организации образовательного процесса. Особое внимание уделено роли творческого мышления учителя, его способности находить гибкие решения в проблемных ситуациях и содействовать развитию самостоятельного и критического мышления учащихся. Результаты исследования способствуют определению важных факторов подготовки конкурентоспособных,

инновационно мыслящих педагогов, соответствующих современным требованиям образования.

Ключевые слова: компетентность, креативность, начальное образование, педагогическое мастерство, инновационные технологии, профессиональная компетенция, творческое мышление, качество образования, современная педагогика.

Kirish. Jahon ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga yangicha talablarni qo'yimoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qila olishi va hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Ushbu maqsadlarga erishishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'rni beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasida yangi taraqqiyot bosqichida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mazkur jarayonning asosiy maqsadi yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega, zamonaviy kompetensiyalarni puxta egallagan, jamiyat va davlat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan, mustaqil fikrlovchi va mas'uliyatli mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Shu jihatdan ta'lim tizimining oldiga qo'yilgan vazifalar nafaqat bilim berish, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Uchinchi Renessans g'oyalariga tayangan zamonaviy ta'lim modeli o'quvchilarga faqat ma'lum hajmdagi nazariy bilimlarni berish bilan cheklanib qolmay, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, murakkab va noaniq vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va istiqbolini baholash kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Shu sababli bugungi ta'lim tizimi kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy pedagogikada muhim o‘rin tutishiga qaramay, uning nazariy va metodik asoslari hali to‘liq shakllanmagan. Natijada “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining mazmunini talqin qilishda turli qarashlar va ilmiy yondashuvlar uchramoqda. Bu esa mazkur tushunchalarning mohiyatini yanada chuqurroq o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur muammo bo‘yicha mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, N.A.Muslimov, T.Sattorov, R. Xamdorov va O. Qo‘ysinovlarning ilmiy ishlarida kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik hamda pedagogik kompetentlik tushunchalarining mazmuni, ularning psixologik va pedagogik jihatlari keng tahlil qilingan. Ilmiy manbalarda kompetensiya tushunchasiga turlicha izohlar berilgan. Jumladan, B.A.Vediniskiy tomonidan tuzilgan ensiklopedik lug‘atda kompetensiya shaxsning bilim va tajribasi asosida shakllangan vakolatlar doirasi sifatida tavsiflanadi. Boshqacha aytganda, bu insonning muayyan faoliyat sohasi bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lishi va shu yo‘nalishda fikr yurita olish qobiliyatini anglatadi.

Jahon ta’lim amaliyotida matematika fanlarini o‘qitishga oid innovatsion yondashuvlarning keng joriy etilishi va matematik bilimlarni o‘zlashtirishning murakkabligi bo‘lajak pedagoglarning matematik kompetentligini rivojlantirish masalasining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Mazkur muammo yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, matematik kompetentlik tushunchasiga nisbatan yagona ilmiy yondashuv shakllanmagan va turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining matematik kompetentligi bir qator muhim sifatlarni o‘z ichiga oladi. Bular qatoriga kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglash, ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lish, ilmiy bilish metodlarini tushunish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, axborotni izlash, qayta ishlash va tahlil qilish ko‘nikmalariga egalik, shuningdek, matematik

bilimlarni turli fanlar bilan integratsiyalashgan holda amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatlari kiradi. M.I.Djumayev, O.Borzenkova, V.Plaxova, V.Poladova, N.Evtushonka va Isabel Albaladejo kabi tadqiqotchilar aynan ushbu jihatlarni matematik kompetentlikning muhim tarkibiy qismlari sifatida e'tirof etadilar.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishining dastlabki poydevorini yaratadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi bilan birga kreativ fikrlaydigan, innovatsion yondashuvlarni qo'llay oladigan mutaxassis bo'lishi zarur.

Bugungi kunda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning keng joriy etilishi pedagogning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy faoliyatdagi samaradorligini ham talab etmoqda. Bunda kreativlik o'qituvchining muhim kasbiy sifatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kompetentlik atamasi «samaradorlilik», «erishish», «muvaffaqiyatlilik», «tushunish», «natijalilik», «ega bo'lish», «sifat», «miqdor» so'zlari yordamida ta'riflanadi, shu bilan birga ko'pgina mualliflar uni tashxislashdagi qiyinchiliklarni qayd etgan. L.Spenser va M. Spenserlarning ta'kidlashicha, kompetensiyalarning shakllanishi ularni o'lchash va xususiyatlarini aniqlash qiyinchiligi bilan ortga suriladi. Dj. Raven kompetentlikni biror bir obyekt yoki obyektlar sinfiga ko'ra biror sohaga tegishliligi bilan baholash kerak – deb hisoblaydi. Natijada ma'lum faoliyatning individual motivatsiyasi jadalligining bahosi hosil bo'ladi. U shaxs kompetentligini biror bir maqsadga erishish uchun faoliyat olib borishi kutilgan holdagina aniqlanishi ma'noga ega bo'ladi - deb tushuntiradi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uning sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar pedagog kadrlar faoliyatiga ham yangi talablarni qo'ymoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va innovatsion yondashuvlarni shakllantira oladigan kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur. Shu bois pedagogika fanida

so'nggi yillarda "kreativlik" tushunchasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida kreativlikning shaxs, jamiyat va davlat taraqqiyotidagi o'rni tobora ortib borayotgani ushbu masalani pedagogik nuqtai nazardan chuqur tadqiq etishni taqozo etadi. Kreativlik fenomeni xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng tadqiq qilingan bo'lib, turli olimlar tomonidan uning turli jihatlari o'rganilgan. Jumladan, N.N. Nechaev, Ya.A. Ponomarev, B.M. Teplov va D.V. Ushakov kreativlikning umumiy nazariy asoslarini tadqiq etgan bo'lsalar, N.A. Berdyaev, V.S. Bibler, V.N. Drujinin hamda P.A. Florenskiylar ushbu hodisaning ma'naviy va psixologik qirralarini tahlil qilganlar. XXI asrda O'zbekiston pedagogika ilmida ham kreativlik masalasi keng muhokama qilina boshladi. Ayniqsa innovatsion pedagogika yo'nalishining rivojlanishi natijasida ushbu tushuncha ilmiy va amaliy faoliyatda faol qo'llanilmoqda. J. G'.Yo'ldoshev, R.A.Mavlanova va boshqa mahalliy olimlar kreativlikni pedagogning innovatsion faoliyatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida talqin qiladilar. Xususan, R.A.Mavlanovanning "Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya" nomli o'quv qo'llanmasida kreativlik tushunchasining mazmuni, mohiyati va shakllanish jarayonlari batafsil yoritilgan. Biroq mazkur masala hali ham mustaqil ilmiy-pedagogik tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchi shaxsining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Aynan shu davrda bolaning bilishga qiziqishi, ijodiy fikrlashi va intellektual salohiyatining asoslari shakllanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyati va uning ta'lim sifatiga ta'sirini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar boshlang'ich ta'lim amaliyotini takomillashtirish hamda pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik va matematik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarning yetarli darajada ishlab

chiqilmaganligi hamda ularni amaliyotda samarali qo'llash bilan bog'liq qiyinchiliklar mavjud. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish, o'qituvchilarning kasbiy malakasini muntazam oshirish hamda kreativ fikrlash va matematik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar va treninglarni tashkil etish tavsiya etiladi.

Xulosa, Zamonaviy ta'lim tizimi pedagoglardan nafaqat chuqur bilim, balki kreativ fikrlash va yuqori kasbiy kompetentlikni ham talab etadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativligi va matematik kompetentligini rivojlantirish o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi hamda bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv va innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash pedagoglar tayyorlash sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid farmon va qarorlari.
3. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: Fan, 2017.
4. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2019.
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
6. Begimqulov U.Sh. Ta'limda axborot texnologiyalari. Toshkent, 2022.
7. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2020.
8. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2018.